


ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ

мавзусидаги Республика миқёсидаги
хорижий олимлар иштирокида
онлайн илмий-амалий анжуман

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2020 йил 17-18 декабрь



Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЭКОЛОГИК
МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ**

**мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокида
онлайн илмий-амалий анжуман**

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2020 йил 17-18 декабрь

KOGON TUMAN TUPROQLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH VA MUHOFAZA QILISH OMILLARI

R.Yunusov, N.M .To'rayeva, O'.Shamsiyeva

Buxoro davlat universiteti

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik sohasida olib borayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi dehqonchilik madaniyatini yuqori pog'onalariga ko'tarish bilan birga qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarini tashkil qilish va takomillashtirish orqali aholini to'la-to'kis ta'minlashdan, iqtisodiyotni yuksaltirishdan iboratdir va bu chora tadbirni to'liq o'tkazilishi katta samaradorlik keltiradi.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan sug'oriladigan tuproqlarda yuqori va sifatli hosil olishning yana bir muhim omili bu rejalashtiriladigan hosildorlikka mos ravishda mineral o'g'itlarni yerga kiritilishiga bog'liq.

Buxoro viloyati Kogon tumani tuproq-iqlim sharoiti o'ziga xos bo'lib, iqlimi keskin o'zgaruvchan-kontinental hisoblanadi.

Kogon tumani tuproqlari qadimdan sug'orilib kelinayotganligi sababli bu tuproqlar sug'orilmaydigan tuproqlarga nisbatan gumus miqdori ko'proq, ammo gumus gorizonti nihoyat kam cho'zilgan. Bu tuproqlarning mexanik tarkibi yengil va o'rta soz bo'lib, past hududlarda joylashgan xo'jalik tuproqlarining mexanik tarkibi og'irlashib boradi. Undan tashqari kanal va ariqlar oldilarida yoki atrofida joylashgan tuproqlarning mexanik tarkibi qumoqli tuproqlarga mo'ldir, chunki bu yerlarda sug'orish natijasida ularning tarkibi sug'orish suvlari bilan olib kelinganligidan agroirrigatsion moddaning yengil darajalari bilan qo'shilgan bo'ladi. Kogon tumani sharoitida qadimdan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlar sho'rlanmagan dalalar bilan birgalikda ularning orasida har xil darajada sho'rlangan tuproqlar ham uchraydi. Sho'rlangan tuproqlar orasida kam sho'rlangan, o'rtacha sho'rlangan va kuchli sho'rlangan tuproqlar guruhi ajralib turadi. Chunki bu tuproqlarning genetik qavatlarida quruq qoldiq miqdori 0.125-0.140% ni tashkil qilib, sho'rlangan tuproqlarni ko'rsatadi.

Qadimdan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarda gumusni miqdori 0.650-0.504% ni tashkil qilib, tuproqning qatlamlarida har xil tarqalgan haydalma va plug osti qatlamlarida (0-50 sm) gumusni miqdori 0.7-0.8% ni tashkil qilib, o'rta vapastki qatlamlarda ularning miqdori 0.3-0.7% ga qadar o'zgarib turadi. Tuproqshunoslik sohasida mutaxassislarning tadqiqotlariga ko'ra, 1sm³ hajmdagi tuproqlarning og'irligi 1.1-1.2 gr/sm³ ga teng bo'lishi normal hisoblansa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 1.6-1.8gr/sm³ ga yetgan. Tuproqning sho'rlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina nazariy masalalarni hal etishda tuproq va uning suv-fizikaviy xossalarini bilish muhim ahamiyatga ega bo'lib ularni atroflicha o'rganish talab etiladi. Kogon tuman hududida yetishtiriladigan asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bilan band bo'lgan tuproq tiplari tipchalarning agrokimyoviy va agromeliorativ xossalari va ularni boshqarishga qaratilgan agrotexnika va gidrotexnik tadbirlar to'g'risida adabiyotlar ko'p yoritilgan bo'lsada, tuproqlar unumdorligi va suv tanqisligini boshqarishda suv-fizikaviy xossalar va targ'ibotlarning ahamiyati, ularni boshqarish tadbirlari kam yoritilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, kogon tumani sharoitida tuproq qatlamlarida kechayotgan suv-ozuqa, suv-tuz, suv-havo mexanik tarkibi, makro va mikroagregatlik holati, zichligi, qattiqligi va g'ovakligini o'rganish foydadan xoli emas. Shuni alohida qayt etish lozimki, K butun kesma gorizontlari bo'yicha bir tekis taqsimlangan.

Kogon tumanida mavjud cho'lli qumli tuproqlar boshqa tuproqlardan o'zining yumshoq hajm og'irligining yengilligi, strukturasizligi bilan bir qatorda xususiyatlari bilan tuproqlardan farq qiladi. eng asosiy xususiyatlaridan biri ularning yaxshi suv o'tkazuvchanligidir. Ikkinchi tomondan kapilyar g'ovakligi katta bo'lganligi uchun sizot suvlarining ko'tarilishi boshqa tuproqlarga qaraganda tezroq yoki qisqa muddatda yer yuziga ko'tariladi, yana uni alohida qayd etish lozimki, cho'lli qumli tuproqlarning tarkibida issiq va sovuq temperaturaning o'zgarishi natijasida kesmaning o'rta qismida har doim parlangan yoki kondetsion namlik hosil bo'ladi. Sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlar tuz tarkibida gips

juda kam miqdorda ham rivojlangan . Pastki kesmada uchraydigan sizot suvlarida Na va Mg ionlari ko'proqdir.

Shuningdek, Kogon tumanida mavjud qadimdan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar tarkibida gumus miqdori ko'proq, lekin gumus gorizontlari juda kam cho'zilgan, karbonatlar esa tuproq kesmasidagi gorizontlarda tekis taqsimlangan.

Kogon tumanining sug'oriladigan tuproqlar genezisi,geografiyasi, klassifikatsiyasini, sho'rlanishni, tabiiy antropogen ta'sirida o'zgarishlarni, ularni tuproq xaritasini tuzishdagi ahamiyati va qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi asosiy muammolarni ko'rib chiqish bilan bir qatorda tuproq kesmada o'tayotganjarayonlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Ramazonov O. Nasonov v. Sho'rlangan tuproqlarni aniqlashda zovurlar chuqurligining ahamiyati "O'zbekiston tuproqlarining unumdorlik holati, muhofazasi va ulardan samarali foydalanish masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami Toshkent-2013

2. Ahmedova M.A, SharipovaA.I Повышение структуры засоленных почв // "Биологик, экологик ва агротупроқ-шунослик таълими муаммолари ва истиқболи" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to'plami.Toshkent 2001

3. Ortiqov T.Q, Imamov F.Z, Tuproq singdirish kompleksida natriy kationi yuqori bo'lgan tuproqlar agrokimyoviy xossalari va ularni yaxshilashda meliorativ tadbirlarning o'rni. 2018

Б.И.Ниязалиев, Б.Х.Тиллабеков, Б.А. Тиллабеков, Х.Хайитбоев, Ф.Х.Жумаев. Маҳаллий хом ашёдан тайёрланган таркибида микроэлементи бўлган гранулали ва суяк азот ўғити қўлланилганда тупроқ таркибида мис, рух ва молибден микроэлементларни тўпланишига таъсири.	175
М.Рузметов, Х.Намазов, Ю.Корахонova, Г.Абдалова, А.Корахонov. Земельных ресурсов субтропической зоны Узбекистана.	177
Рахмонов И., Ғозиев У. Сирдарё вилоятида ерларнинг мелiorатив ҳолати назорати натижалари ва унинг аҳамияти.	180
Б.Р.Рамазонov, А.Ж.Исмонов, Ш.Т.Турсунов, Г.Х. Турсуновa. Аллювиал ётқизиқларда ривожланган Амударё ёйилмасидаги суғориладиган тупроқларнинг ҳозирги ҳолати.	182
Х.Қ.Намозов, О.С.Амонов. Бухоро воҳаси суғориладиган тупроқларининг ҳозирги мелiorатив ҳолатини тавсифи	184
Н.Халмухамедова, Б.Буриев. Жиззах вилояти Ш.Рашидов тумани Ш.Рашидов массиви лалми ер майдонларининг тупроқ харитасини тузиш ва сифатини баҳолаш	191
Х.Намазов, М.Рузметов, Ю.Корахонova. A brief characteristics of soil layer in Mirzachul region.	193
Х.Намозов, О.Жўраев, У.Қурбонқулова. Тошкент вилояти суғориладиган типик бўз тупроқларида ресурстежамкор технология қўллаб тупроқ унумдорлигини яхшилаш	198
Б.Р.Рамазонov Проблемы Аральского моря	204
Х.Қ.Намозов, О.С.Амонов. Мелиорация засоленных земель бассейна Амударьи	210
Ҳ.Т.Артикова, М.М. Сатторова. Қумли чўл тупроқларининг генезиси, эволюцияси ва улардан фойдаланиш	214
R.Yunusov, N.M. To'rayeva, O'.Shamsiyeva. Kogon tuman tuproqlarining unumdorligini oshirish va muhofaza qilish omillari.	216

III ШҶҒБА.

ТУПРОҚ ЭКОЛОГИЯСИ, БИОЛОГИЯСИ ВА ТУПРОҚЛАРНИ МУҲОҒАЗА ҚИЛИШ, ТУПРОҚШУНОСЛИК АМАЛИЁТИДАГИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР

М.М.Даулетмуратов, Л.А.Гафурова., М.Э.Саидова. Тупроқ унумдорлигини мониторинг қилишда Landsat мультиспектрал сунъий йўлдошларидан фойдаланиш.	218
Т.Қ.Ортиқов, Ҳ.Т.Артикова, О.Р.Умаров. Турли даражада шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқлар сингдириш комплекси ва уни шаклланиш жиҳатлари.	221
Б.Б.Аслонов. Обоснование необходимости экологизации промышленного производства.	222
О.Х. Эргашева. Туркистон тоғ тизмаси эрозияга учраган тупроқларининг педофауна миқдори ва индикатор мезонлари.	224